



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Ekonometrika va statistika
Econometrics and statistics
Эконометрика и статистика



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING MAKRO VA MIKROIQTISODIY OMILLAR ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLANISHI

Nabixo'jayeva Maxfuza Ulug'bek qizi

ECONOMETRIC ASSESSMENT OF THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS BASED ON MACROECONOMIC AND MICROECONOMIC FACTORS

Nabixojayeva Makhfuza

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ НА ОСНОВЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И МИКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ

Набиходжаева Махфуза Улугбековна

Received: June 7, 2026 Revised: June 8, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi makro va mikroiqtisodiy omillar ekonometrik usullar yordamida baholangan. Tadqiqotda banklarning rentabellik ko'rsatkichlari (ROA va ROE) asosiy natijaviy indikator sifatida tanlanib, inflyatsiya, YaIM o'sishi, foiz stavkalari, kredit portfeli, likvidlik va kapital yetarliligi kabi omillarning ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar mikroiqtisodiy omillarning bank samaradorligiga nisbatan kuchliroq ta'sirga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, samaradorlik, ROA, ROE, ekonometrik baholash, mikroiqtisodiy omillar, mikroiqtisodiy omillar.

АННОТАЦИЯ: В данной статье проведена эконометрическая оценка влияния макро- и микроэкономических факторов на эффективность деятельности коммерческих банков. В качестве основных показателей эффективности использованы коэффициенты рентабельности активов (ROA). В исследовании применён метод наименьших квадратов (OLS), на основе которого построена регрессионная модель. Результаты анализа показали, что макроэкономические факторы, такие как инфляция и темпы роста ВВП, оказывают существенное влияние на банковскую деятельность. В то же время микроэкономические показатели, включая объём кредитного портфеля, ликвидность и достаточность капитала, оказывают более сильное воздействие на эффективность банков. Полученные результаты могут быть использованы для повышения эффективности банковской деятельности и совершенствования финансовой политики.

Ключевые слова: коммерческие банки, эффективность, ROA, макроэкономические факторы, микроэкономические факторы, эконометрический анализ, регрессионная модель

ABSTRACT: This article presents an econometric assessment of the impact of macroeconomic and microeconomic factors on the efficiency of commercial banks. Return on Assets (ROA) is used as the main performance indicator. The Ordinary Least Squares (OLS) method is applied to construct a regression model. The results show that macroeconomic factors such as inflation and GDP growth have a significant impact on banking performance. At the same time, microeconomic indicators, including loan portfolio size, liquidity, and capital adequacy, exert a stronger influence on bank efficiency. The findings can be used to improve banking performance and enhance financial policy.

Keywords: commercial banks, efficiency, ROA, macroeconomic factors, microeconomic factors, econometric analysis, regression model



■ KIRISH.

Hozirgi globallashuv sharoitida tijorat banklari iqtisodiy tizimning ajralmas bo'g'ini sifatida moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Banklar nafaqat iqtisodiyot subyektlari o'rtasida pul oqimlarini tashkil etadi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vositachi hisoblanadi. Shu sababli tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi [1].

Tijorat banklari samaradorligi ko'p omilli jarayon bo'lib, unga ta'sir etuvchi omillarni makro va mikro darajada ajratish mumkin. Makroiqtisodiy omillar, jumladan inflyatsiya darajasi, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi, foiz stavkalari va pul-kredit siyosati bank faoliyatining umumiy sharoitini belgilaydi. Xususan, yuqori inflyatsiya bank aktivlarining real qiymatini pasaytirib, ularning rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, iqtisodiy o'sishning jadallashuvi bank xizmatlariga bo'lgan talabni oshirib, ularning daromadlilikini ta'minlaydi [2].

Bundan tashqari, tijorat banklari faoliyatining samaradorligi ichki, ya'ni mikroiktisodiy omillar bilan ham bevosita bog'liqdir. Bankning kredit portfeli hajmi va sifati, likvidlik darajasi, kapital yetarliligi hamda operatsion boshqaruv samaradorligi uning moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kapital yetarliligi darajasining yuqori bo'lishi banklarning risklarga bardoshlilikini oshirsa, likvidlikning optimal darajada ta'minlanishi bankning to'lov qobiliyatini mustahkamlaydi [3].

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi oshib, ularning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada kengaymoqda. Xususan, bank kapitalining oshirilishi, kreditlash hajmining kengayishi hamda zamonaviy bank xizmatlarining joriy etilishi bank samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bank tizimida mavjud risklar va tashqi iqtisodiy omillarning o'zgaruvchanligi bank samaradorligini chuqur ilmiy asosda o'rganishni talab etmoqda [4].

Ilmiy adabiyotlarda tijorat banklari samaradorligini baholashda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular orasida ekonometrik modellash tirish alohida o'rin tutadi. Ushbu yondashuv orqali bank faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy jihatdan baholash va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash mumkin [5]. Ekonometrik modellar bank faoliyatini prognozlash, risklarni baholash va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi tijorat banklari faoliyati samaradorligini makro va mikroiktisodiy omillar asosida ekonometrik baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- bank samaradorligini baholovchi asosiy ko'rsatkichlarni aniqlash;

- makro va mikroiktisodiy omillar tizimini shakllantirish;

- ekonometrik model tuzish va baholash;

- olingan natijalar asosida ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqish.

■ ADABIYOTLAR SHARHI:

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash masalasi iqtisodiy fanlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar bank samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini baholashga qaratilgan.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda bank samaradorligini o'rganishda asosiy e'tibor moliyaviy ko'rsatkichlar, xususan aktivlar va kapital rentabelligiga qaratilgan. F. Mishkin o'z tadqiqotlarida bank tizimining samaradorligi iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, rivojlangan bank tizimi resurslarni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi [1].

P. Rose va S. Hudgins tijorat banklari boshqaruvi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida bank samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy mikroiktisodiy omillar sifatida likvidlik darajasi, kapital yetarliligi va kredit risklarini ko'rsatadi. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, ushbu omillarni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi [2].

Ekonometrik yondashuvlar bank samaradorligini empirik baholashda keng qo'llaniladi. J. Wooldridge hamda D. Gujarati tadqiqotlarida regressiya tahlili iqtisodiy jarayonlarni modellash tirish va omillar ta'sirini miqdoriy baholashning eng samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etilgan [3]. Ayniqsa, ko'p omilli regressiya modellari bank faoliyatiga bir vaqtning o'zida bir nechta omillarning ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Moliyaviy rivojlanish va bank samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik R. Levine tomonidan chuqur o'rganilgan. U o'z tadqiqotlarida bank tizimining rivojlanishi iqtisodiy o'sishni tezlashtirishini hamda investitsion faollikni oshirishini ilmiy asoslab bergan [4]. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda inflyatsiya darajasining yuqoriligi banklar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Panel ma'lumotlar asosida olib borilgan izlanishlarda bank samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni yanada aniqroq baholash imkoniyati mavjudligi ta'kidlanadi. B. Baltagi bank faoliyatini o'rganishda individual bank xususiyatlarini hisobga olish muhimligini asoslab beradi [5]. Bu esa mikroiktisodiy omillarning bank samaradorligidagi o'rnini yanada chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda bank samaradorligini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqotlarda makroiqtisodiy omillar, xususan YaIM o'sishi, inflyatsiya va foiz stavkalari asosiy determinantlar sifatida ko'rib chiqilmoqda. Athanasoglou va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank rentabelligiga ham makro, ham mikro omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [6].

O'zbekiston bank tizimi doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham bank samaradorligini oshirish masalasi alohida e'tiborga olinmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan banklarning kredit siyosati, likvidlikni boshqarish va kapital yetarliligi ko'rsatkichlarining samaradorlikka ta'siri o'rganilgan.



Ushbu tadqiqotlar natijalari bank faoliyatida ichki boshqaruv mexanizmlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [7].

Shu bilan birga, Markaziy bank hisobotlari asosida olib borilgan tahlillar bank tizimida kreditlash hajmi va aktivlar sifati o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Bu esa bank samaradorligini oshirishda kredit portfeli sifatini yaxshilash muhim ekanligini ko'rsatadi [8].

Yuqoridagi ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tarzda, ya'ni makro va mikro darajada birgalikda o'rganish zarur. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ayrim omillarning o'zaro ta'siri yetarli darajada chuqur ekonometrik tahlil qilinmagan. Mazkur maqola aynan shu jihatni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, bank samaradorligini aniqlashda kompleks ekonometrik yondashuvni qo'llaydi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI:

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi makro va mikroiqtisodiy omillarni baholash uchun ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot nazariy yondashuvlar va empirik tahlil uyg'unligiga asoslanadi.

Tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklari faoliyatiga oid 2015–2024-yillarni qamrab oluvchi statistik ma'lumotlar asos qilib olindi. Ma'lumotlar Markaziy bank hisobotlari, davlat statistika manbalari va tijorat banklari moliyaviy hisobotlaridan shakllantirildi [6].

Bank samaradorligini baholash uchun natijaviy ko'rsatkich sifatida ROA (aktivlar rentabelligi) tanlandi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida makroiqtisodiy omillar - inflyatsiya (INF), YaIM o'sishi (GDP), foiz stavkalari (IR) hamda mikroiqtisodiy omillar - kredit portfeli hajmi (LOAN), likvidlik darajasi (LIQ) va kapital yetarliligi (CAP) kiritildi.

Tadqiqotda quyidagi ko'p omilli regressiya modeli qo'llanildi:

$$ROA = \beta_0 + \beta_1 INF + \beta_2 GDP + \beta_3 IR + \beta_4 LOAN + \beta_5 LIQ + \beta_6 CAP + \varepsilon$$

Model parametrlarini baholashda eng kichik kvadratlar usuli (OLS) qo'llanildi [3].

Modelning ishonchligini tekshirish maqsadida determinatsiya koeffitsienti (R^2), Student t-testi va Fisher F-testi qo'llanildi. Shuningdek, model diagnostikasi uchun multikollinearlik (VIF), avtokorrelatsiya (Durbin-Watson) va geteroskedastiklik testlari amalga oshirildi [4].

Mazkur metodologiya tijorat banklari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-tijorat banklari samaradorligiga ta'sir etuvchi makro va mikroiqtisodiy omillar yagona ekonometrik model doirasida kompleks tarzda baholandi;

-bank samaradorligini aniqlashda makroiqtisodiy muhit (inflyatsiya, YaIM o'sishi, foiz stavkalari) va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar (kredit portfeli, likvidlik,

kapital yetarliligi)ning o'zaro ta'siri tizimli ravishda asoslab berildi;

-kredit portfeli hajmining bank samaradorligiga ta'siri eng yuqori omil sifatida empirik jihatdan aniqlab berildi;

-O'zbekiston bank tizimi misolida ekonometrik model asosida bank samaradorligini baholashning amaliy yondashuvi ishlab chiqildi;

-model natijalari asosida bank faoliyatini optimallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar shakllantirildi.

Mazkur tadqiqot natijalari tijorat banklari faoliyatini samarali tashkil etish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xususan:

-banklar tomonidan kredit siyosatini takomillashtirish va kredit portfeli samarali boshqarishda foydalanish mumkin;

-kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlarini optimallashtirish orqali bank barqarorligini oshirish imkonini beradi;

-makroiqtisodiy omillar ta'sirini inobatga olgan holda bank strategiyasini shakllantirishga xizmat qiladi;

-Markaziy bank va moliyaviy regulyatorlar uchun bank tizimini rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda analitik asos bo'lib xizmat qiladi;

-iqtisodiy tadqiqotlar olib borishda ekonometrik modellash usullarini qo'llash uchun metodik asos sifatida foydalanish mumkin.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR:

Mazkur tadqiqot natijalari tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks ekonometrik tahlil qilish orqali ularning iqtisodiy mazmuni va o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Olingan natijalarga ko'ra, bank samaradorligiga makroiqtisodiy omillar ichida inflyatsiya darajasi salbiy, YaIM o'sishi esa ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu esa iqtisodiy barqarorlik banklar faoliyatining muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi [2; 4]. Foiz stavkalarining oshishi kreditlash hajmiga bosim o'tkazib, bank daromadligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi [1].

Mikroiqtisodiy omillar ichida kredit portfeli hajmi bank samaradorligining asosiy determinantlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Bu holat bank daromadlarining asosiy manbai kredit operatsiyalari ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlari bank barqarorligini ta'minlashda muhim omillar sifatida aniqlandi [3].

Ekonometrik model natijalarining yuqori tushuntirish darajasi va diagnostik testlar orqali tasdiqlanishi tanlangan metodologiyaning ishonchligini ko'rsatdi. Bu esa bank samaradorligini baholashda kompleks yondashuvning samaradorligini yana bir bor isbotlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

-tijorat banklarida kredit portfeli diversifikatsiya qilish va risklarni kamaytirish choralari kuchaytirish;



-kapital yetarliligini oshirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash;
 -likvidlikni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish;
 -makroiqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchan bank strategiyalarini ishlab chiqish;
 -bank faoliyatida zamonaviy risk-menejment va stress-test usullarini keng joriy etish.

Umuman olganda, tijorat banklari samaradorligini oshirish makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va banklarning ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tadqiqot natijalari bank tizimini rivojlantirishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Nabixo'jayeve Maxfuza Ulug'bek qizi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, "Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriya" kafedrası assistenti/Набиходжаева Махфуза Улугбековна, Ташкентский университет прикладных наук, доцент кафедры «Сетевая экономика и бухгалтерский учет»/Nabixo'jayeve Maxfuza Ulug'bek qizi, Tashkent University of Applied Sciences, Assistant Professor, Department of "Network Economics and Accounting"

E-mail: abdurazakova.nasibahon1979@gmail.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Mishkin, F. S. (2019). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson.
- 2.Rose, P. S., & Hudgins, S. C. (2018). Bank Management & Financial Services. McGraw-Hill.
- 3.Wooldridge, J. M. (2016). Introductory Econometrics: A Modern Approach. Cengage Learning.
- 4.Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2015). Basic Econometrics. McGraw-Hill.
- 5.Baltagi, B. H. (2013). Econometric Analysis of Panel Data. Wiley.
- 6.Levine, R. (2017). Financial development and economic growth. Journal of Economic Literature, 35(2), 688–726.
- 7.IMF. (2022). Global Financial Stability Report. Washington, DC.
- 8.World Bank. (2023). Global Financial Development Report. Washington, DC.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020–2024). Yillik hisobotlar. Toshkent.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2020–2024). Rasmiy statistik ma'lumotlar.
- 11.Demirgüç-Kunt, A., & Huizinga, H. (2012). Bank profitability and financial development. Journal of Financial Economics, 98(3), 626–650.
- 12.Athanasoglou, P., Brissimis, S., & Delis, M. (2008). Bank-specific and macroeconomic determinants of bank profitability. Journal of Financial Markets, 18(2), 121-136.
- 13.Berger, A. N. (1995). The relationship between capital and earnings in banking. Journal of Money, Credit and Banking, 27(2), 432–456.
- 14.Saunders, A., & Cornett, M. (2014). Financial Institutions Management. McGraw-Hill.
- 15.Kasmir. (2021). Bank ishi. Jakarta.
- 16.Abdukarimov, X. (2020). Tijorat banklarida likvidlikni boshqarish. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 5(2), 45–52.
- 17.Yuldashev, O. (2021). Bank tizimida kapital yetarliligi. Moliya, 3, 28–34.
- 18.Karimov, B. (2022). Bank tizimi samaradorligi tahlili. Iqtisodiy tadqiqotlar, 4, 60–68.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz